

## Qashqadaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-iyul dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1-avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6 590 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 20 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 6 570 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 15 262,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 108,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 773,3 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirdorlik subyektlarining tovar aylanmasi 12 601,5 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 887,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,7 %) tashkil etdi.

#### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

## Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo


## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1-avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 274 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 15 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 259 tani tashkil qildi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2025- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 752,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 9,6 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 4 157,5 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,7 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 87,5 % ni tashkil qildi.

### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd. so'm)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hudud Kasbi (2,4 m.) tumanida kuzatildi.



### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1-avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 527 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 521 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyul oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 10 892,9 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 114,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 89,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

### Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



## IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda,O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari,shuningdek,xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi, 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatalidi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlarnatijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

## V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)



---

**Chiqarish uchun javobgar:**

Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi

**Manzil:** 180100, Qashqaryo viloyati, Mustaqillik

ko'chasi, 2 B-uy **Pochta:** [gashstat@umail.uz](mailto:gashstat@umail.uz)

Tel.: 75-221-44-28